


# INTERNATIONAL SCIENTIFIC FORUM XALQARO ILMIY FORUM




13 January 2023 | UZBEKISTAN

# XALQARO ILMIY FORUM

*Ko‘p tarmoqli ilmiy-amaliy  
anjuman materiallari*

(2023-yil, 13-yanvar)



(January 13, 2023)

*Proceedings of the multi-disciplinary  
scientific-practical conference*

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC FORUM**



## MUNDARIJA – CONTENTS

<b>№</b>	<b>Mualliflar (authors)</b>	<b>Maqolasi (article)</b>	<b>Sahifasi (pages)</b>
1.	Abdinazarova M.	KVADRAT UCHHAD QATNASHGAN IRRATIONAL FUNKSIYA ALGEBRAIK CHIZIQLI TENGLAMALAR YORDAMIDA INTEGRALLASH	4
2.	Abdisalomova S, Kamalova D.	UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA ASTRONOMIYA TA'LIM STANDARTINING O'RNI VA AHAMIYATI	7
3.	Abdullayeva KH.	WAYS TO HACK Wi-Fi VULNERABILITY NETWORKS	10
4.	Abdulvahob Q, Niyozova D.	O'ZBEK TILI BUGUNGI KUNDA	14
5.	Abdurahmonova M.	OLIY TA'LIMDAN KEYIN KUTUBXONACHILIK SOHASIDAGI MUTAXASSISLARDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH	16
6.	Abduraxmonova Z.	KOMMUMIKATIV KOMPETENTLIKNI O'STIRISH	21
7.	Abduvaliyev B, Qodirova Z.	SOYBEAN MOSAIC VIRUSNING SOYA O'SIMLIGI PIGMENTATSIYASI (xlorafill a, xlorafill b va karatinoid) GA TA'SIRI	25
8.	Abduvoitov Z.	ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASRLARNI CHULG'AYOTGAN NUR VA UNING JANG OLIB BORISH USULI	28
9.	Ahadov J.	KONSTITUTSIYA – BAXTIMIZ POYDEVORI	31
10.	Ahmad J.	AFG'ONISTODAGI ZAMONAVIY O'ZBEK ADABIYOTNI SHAKLLANISH BOSQICHLARI	33
11.	Ahmadova U.	PERIFRASTIK BIRLIKLARNING IJTIMOIY KASBIY TASNIFGA KO'RA TURLARI	36

**PERIFRASTIK BIRLIKLARNING IJTIMOIY KASBIY TASNIFGA KO'RA  
TURLARI**

*Ahmadova Umidaxon Shavkat qizi*

*Buxoro davlat universiteti*

*O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasasi o'qituvchisi, f.fff.d. (PhD)*

Perifraza, aslida, grekcha so'z bo'lib (paraphrasis), u lingvistikada, jumladan, o'zbek tilshunosligida "tasviriy ifoda" maenosida qo'llanilmoqda. A.Hojiyevning "Lingistik terminlarning izohli lug'ati"da: "Narsa, hodisani o'z nomi bilan emas, tasviriy usul bilan ma'lum kontekst, situatsiyadagi xarakterli belgi-xususiyati orqali ifodalaydigan stilistik priyom. Masalan, dala malikasi (makkajo'xori)" [3, 67]. Perifrazani ko'chim turlaridan biri sifatida talqin qilgan tilshunos olim R.Qo'ng'urov bo'lib, olimning 1983-yilda nashr etilgan "O'zbek tili stilistikasi" qo'llanmasida: "...kishilarning otlarini yoki boshqa predmetlarning nomini to'g'ridan-to'g'ri gapirmasdan, ularni turli xil so'z yoki tasviriy iboralar vositasida bayon qilish perifraz deyiladi. Bu termin perifraza, parafrasz, parafraza deb ham yuritiladi" [2], M.Mirtojiyevning tadqiqotlarida: "Perifrazalar ma'lum bo'lagi yoki bo'laklari ko'chma ma'noda bo'lib, ular ma'nosi sintezidan tashkil topgan, bir tushunchani bildiruvchi lug'aviy birlidir. ...Perifraza holida maqom olgan birikmada, garchi semantik qayta bo'linish kechgan bo'lsa ham, unda sintaktik qayta bo'linish kuzatilmaydi" [1]. Perifraza mavzusining ma'lum bir qirralari jahon, dunyo, o'zbek tilshunoslida o'rganilgan bo'lib, biz asosiy e'tiborni ijtimoiy-kasbiy jihatlariga qaratamiz.

Dunyoda turli-tuman kasblar, bir-biridan turfa hunarlar borki, ularning har biri o'ziga xos ish qurollaridan, o'z kasbi, hunari mohiyatidan kelib chiqadigan atama-yu professionalizmlardan, kasb-hunariga mohiyatan bog'liq til hamda nutq birliklaridan foydalanadi. Masalan, dehqonning asosiy quroli – ketmon, duradgorniki esa tesha, arra. Jarrohniki – tig', qassobniki – pichoq, bolta, tikuvchiniki – igna, ip. Dehqon ketmoni bilan taqir yerda betakror bog' barpo etadi, go'zallik yaratadi. Agar mahorati yetarli bo'lmasa, yerning umriga zomin bo'ladi. Ketmon o'tkir bo'lmasa, dehqonning o'zi ketmon urish hadisini olmagan bo'lsa, oltin tuproqning ham, xomtama dehqonning ham holiga maymunlar yig'laydi. Boshqa kasb, hunar egalari haqida ham shunday fikr aytish mumkin.

Aytish joizki, har bir soha vakillarining, hunar egalarining, o'ziga xos sotsial qatlamlarning nutqini "tanitib turuvchi" terminlari bilan birga perifrazalari ham bo'ladi. Masalan, dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar, tibbiyot xodimlari, pedagoglar, matbuotchilar, diniy soha vakillari, ijodkorlar, quruvchilar, olimlar nutqi perifrazalari va b. Perifrazalarning ijtimoiy kasbiy tasnifga ko'ra turlari xususida mulohaza yuritayotganda ikki jihatni farqlab olish muhim deb hisoblaymiz. Birinchisi, muayyan sotsial obyekt haqida aytilan perifrazalar hamda, ikkinchisi, ijtimoiy kasb, hunar, soha vakillarining nutqida keng yoki alohida qo'llaniluvchi perifrazalar. Masalan, salomatlik posbonlari – shifokorlar haqida aytilan perifraza bo'lsa, haqiqiy adrenalin – shifo ma'nosini beruvchi kasbiy perifraza hisoblanadi. Quyida ijtimoiy-sotsial jihatdan farqlanib qo'llanuvchi perifrazlar keltirilib, tahlil qilinadi.

Dehqonlar nutqi perifrazalari. Dehqon deganda, bepoyon dalalar, bog'u rog'lar, dasturxonimizdagi turli noz-ne'matlar, to'y-tomoshalar, xursandchilik kunlarimiz, to'kin hayotimiz ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Bu sohaning mehnati og'ir va sharaflı, noni esa

qanchalik totli va shirin ekanini barchamiz yaxshi bilamiz. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy bobomiz “olam ahlining to‘qligi, quvonchi, avvalo, yerga urug‘ sochib, bebaho noz-ne‘mat yetishtiradigan fidoyi insonlar mehnatidandir”, deb mirishkor dehqonlar xizmatiga juda katta baho berganlari ham bezizga emas. Mazkur soha egalariga, ularning faoliyatiga, ba‘zan ish qurollariga, yetishtirayotgan mahsulotiga nisbatan rang-barang perifrazalar ishlatalishini kuzatamiz. Jumladan, dehqon so‘zi perifrazalari: Rizzq-ro‘zimiz bunyodkori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi xodimlari mehnatini ulug‘lash, soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish – asosiy vazifamiz (Internet sarlavhasi); ...Shu ma’noda, dehqon bu – ***hayotning baquvvat ustuni, tiriklikning mustahkam tayanchi***, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi [4]; Xalqimiz dasturxoni ***zamin bilan tillashgan*** bobodehqonlarimizning samarali mehnati, peshona teri evaziga to‘lishini hamisha ham eslayvermaymiz (Internet maqolasidan).; Yurtimizda oziq-ovqat mo‘l-ko‘lchiligidagi, xavfsizligiga erishish maqsadida ***dalalarning sadoqatli sohibi*** ertayu kech tinimsiz mehnat qilib, mamlakat ravnaqi uchun poliz mahsulotlarini yetishtirish orqali o‘z hissasini qo‘shmoqda (“Diyor 24”, Dilnoza O‘rinova nutqidan).; Mamlakatimizda g‘allani yetishtirish uchun erta kuzdan tinimsiz harakat qilayotgan ***dala mehnatkashlarining*** bu yilgi hosil uchun olib borilayotgan va amalga oshirilayotgan ishlarining natijasini kuzatar ekanmiz, bu yo‘ldagi sa‘y-harakatlarning yanada maqsadli rivoj topayotganligiga guvoh bo‘lamiz (“Axborot”, Baxtiyor Mamajonov nutqidan).

Dehqon so‘zi o‘rnida uning ***rizq-ro‘zimiz bunyodkori, hayotning baquvvat ustuni, tiriklikning mustahkam tayanchi, zamin bilan tillashgan, dalalarning sadoqatli sohibi, dala mehnatkashlari*** kabi o‘nlab perifrazalari qo‘llaniladiki, mazkur tasviriy ifodalar tinglovchi/o‘quvchini “dehqon – sharafli va ayni paytda mashaqqatli kasb egasi” degan xulosaga olib keladi.

Hunarmandlar nutqi perifrazalari haqida gapirishdan avval hunarmand atamasi xususida biroz to‘xtalib o‘tamiz. Tabiiyki, hunarmandlik turlari qanchalar ko‘p va xilma-xil bo‘lsa, hunarmandchilik, hunar ko‘rinishlari, hunar mahsullari haqida yoki hunarmandlar nutqida ishlatalidigan perifrazalar ham shunchalik ko‘p va rang-barangdir. Masalan, ***kashtado‘zlikka oid perifrazalar***: Kashtachilik san’ati – ***xalqimizning o‘lmas qadriyati*** (Internet sarlavhasi).; Piru badavlat momolarimizdan bizga meros bo‘lib kelayotgan amaliy bezak turlarining eng qadimiy va keng tarqalgan turi kashtachilikdir. Har bir qatim ipakka jon baxshida etib, dil tuyg‘ularini go‘yo bejirim gullar jilosiga ulab, ko‘z-ko‘z etayotgan qiz-juvonlarning nozik barmoqlari chindan-da mo‘jiza yaratmoqda (<http://uza.uz>). ***Zardo‘zlikka oid perifrazalar***: ***Zar ustalari*** mo‘jiza yaratadi (Gazeta sarlavhasi).; Zardo‘zlik – amaliy san’atning zar (tilla va kumush suvi yuritilgan) ip, nozik sim, ipak bilan kashta tikib bezak yaratadigan sohasi (<https://handicraftman.uz>).; Usta hunarmand B.Jumayev zardo‘zlikni mahorat darsi orqali “nozik did hunari” sifatida tushuntirib berdi (<https://handicraftman.uz>).; Mustaqillik yillarda Buxoro zardo‘zlik san’ati ***o‘t ichidan chiqqan qaqnus qush*** kabi qayta jonlandi (Buxoro hunarmandchiligi zebu zarlari, 14-b.). Oshpazlikka oid perifrazalar: – Bu taomlarning sirini ***oshxona sultonidan*** bilib olasiz, azizim, – dedi qiz quvnoq ohangda (“Darakchi” gazetasidan).; Bahriiddin Chustiy: oshpazlik – erkaklar kasbi (Internet salavhasi).; Oshpaz ijodi mahsuli bo‘lgan taomlar xalq taomnomasiga kirgandagina, u haqiqiy ijod mahsuli bo‘ladi (<https://bahriiddin-chustiy>).

Ma’lumki, hunarmandchilik sohasining turlari juda ko‘p. Shu jumladan, xalqimizning o‘lmas qadriyati (kashtado‘zlik), amaliy bezak turi (kashtachilik), san’at turi (kashtachilik), qushdan nusxa oladigan (kashtachi), bezak san’ati turi (kashta); zar ustalari (zardo‘zlar), bezak

yaratadigan soha (zardo‘zlik), nozik did hunari (zardo‘zlik), qo‘li gul (zardo‘z), haqiqiy nafosat namunalari (zardo‘zlik buyumlari), o‘t ichidan chiqqan qaqnus qush (zardo‘zlik san‘ati), momomeros kasb (zardo‘zlik); oshxona sultoni (oshpaz), oshxona sohibi (oshpaz), dasturxon sehrgarları (oshpazlar), oshpaz ijodi mahsuli (taom), erkaklar kasbi (oshpazlik), azaliy kasb turi (oshpazlik); bag‘ri otash mo‘jiza (tandir), pokiza ish joyi (novvoyxona), tandir ustasi (novvoy), xamir ustasi (novvoy), quyosh parchasi yaratuvchilari (novvoylar), dasturxonimiz fayzi (non), sharaflı kasb (novvoylik), tongni uyg‘otgan ne’mat (non), inson rizqi (non), shuningdek, dunyoni ko‘rish san‘ati (miniatyura), kichik o‘lchamlar mo‘jizasi (miniatyura), insonning jonli soyasi (portret), sayyoqlar shoh bekti (mehmonxona), sirli naqshlar san‘ati (yog‘och o‘ymakorligi), shohlar bayoni san‘ati (miniatyura) kabilalar hunarmandchilikka oid perifrazalardir.

Tibbiyot xodimlari nutqi perifrazalari. Inson salomatligini saqlash uchun kurashuvchi mazkur soha vakilari nutqida o‘ziga xos perifrazalar borligini kuzatamiz. Avvalo, soha vakillariga nisbatan *salomatlik posbonlari, oq xalat sohiblari, Gipokrat qasamini ichganlar, shifo sohiblari, Ibn Sino izdoshlari* (shifokorlar) kabi perifrazalar ishlatalishini kuzatamiz. Betakror, go‘zal, jimjimador, tengsiz xazina bo‘lgan tilimizdagи tibbiy perifrazalarni quyida keltirilgan misollar orqali dalillashga harakat qilamiz. Masalan, “*Konferentsiyada o‘rta asrlar Sharq allomalarining tibbiyot rivojiga qo‘shtigan hissasiga oid ma’ruzam bilan qatnashdim. Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi allomalar ilmiy merosini katta qiziqish bilan o‘rganganman va tibbiyot ilmining sultonisi – Abu Ali ibn Sino jahon tibbiyoti taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shtigan “Tib qonunlari” asari Yevropa va dunyodagi boshqa qator davlatlarning tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida abadiy chashma bo‘lib xizmat qilmoqda* (Barbara Potrata, Kembrij universitetining Markaziy Osiyo bo‘yicha forumi ilmiy xodimi nutqidan (Buyuk Biritaniya).; *Tabiblar bobokaloni Abu Ali ibn Sino ba‘zi kasalliklarni yong‘oq bilan davolash haqida yozadi* (Aytboyev D. Konkret shaxslarni anglatuvchi perfrazalarda motivlashuv. TAT. 2007, № 4).; *Covid 19 kasalligini yengib o‘tishda xalqimizdan kuchli iroda, sabr talab etilar ekan, shifokorlar piri Abu Ali ibn Sino aytib o‘tganlaridek birinchi navbatda ruhiy xotirjamlikka amal qilsakkina ijobiy natijalarga erisha olamiz* (Hamshira Iroda Elnazarova nutqidan).; *Oq xalatlari fidoyilar sharofati bilan biz bugun tuzaldik, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga ham minnatdorchilik bildiramiz* (“Axborot 24” dasturidan, 10.04.2020).

Pedagoglar nutqi perifrazalari. Faoliyatining asosiy quroli nutq bilan bog‘liq bo‘lgan kishilar borki, bunday kasb egalari ro‘yxatining boshida o‘qituvchilar turadi, desak mubolag‘a bo‘lmas. Qaysi fan muallimi bo‘lishidan qat‘i nazar, o‘qituvchining nutqi ravon, sodda, aniq va tinglovchiga yetib boradigan darajada tushunarli bo‘lishi zarur. Zero, u til imkoniyatlaridan mohirona foydalana olmas ekan yoki chinakam madaniy nutq malakasini egallamagan bo‘lsa, bunday o‘qituvchining bilimi qanchalik chuqur va yuqori bo‘lmasin, dars uchun ajratilgan soat uning o‘zi uchun ham, ta’lim oluvchi uchun ham azobga aylanishi tayin. Vaholanki, ta’lim tilida puxta, lo‘nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematika, fizika, ximiya yoki biologiya o‘qituvchisi uchun ham, ona tili o‘qituvchisi uchun ham birday zaruriy jihatdir. Tabiiyki, o‘qituvchi-pedagog nutqini boyitadigan nutqiy vositalardan biri perifrazalardir. Pedagoglar nutqi perifrazalari ham o‘ziga xos bo‘lib, odatda, ustoz-muallimlarimiz, tarbiyachi-pedagoglarimizga nisbatan *barkamol avlod tarbiyachisi* (o‘qituvchi), *kelajak bunyodkorlari* (ustozlar), *inson ruhining injeneri* (tarbiyachi), *fan bog‘ining bog‘boni* (muallim), *millatning yuzi* (pedagog) kabi qator perifrazalar qo‘llaniladiki, shu orqali bu sharaflı hamda mashaqqatlı

kasb egalarining mehnatlari bir qadar e'tirof etiladi. Pedagoglar nutqi perifrazalarini ba'zi misollarda ko'rishga harakat qilamiz. Jumladan, "Barkamol avlodni tarbiyalashda kelajak buniyodkorlari bo'lmish ustozlarning fidokorona mehnatlari bugun o'z samarasini bermoqda («O'zbekiston» telekanali, «Axborot» dasturidan, 27.09.2015); Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i mifik bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylidir (I.Karimov).; Ustozlar bizlarga oq-qoran, yaxshi-yomonni tanitib, qo'llarimizga ilk bor qalam tutqazib, "Ota-on", "Vatan", "Ezgulik", "Iyomon", "Islom" kabi so'zlarni yozishga o'rgatgan buyuk va aziz zotlardir (<https://www.mehrob.uz>).

Misollardan ko'rindaniki, o'qituvchi yoki o'qituchilar so'zlarining perifrazalari sifatida kelajak buniyodkorlari, buyuk va aziz zotlar, ma'rifat bog'ining bog'bonlari, yo'lchi yulduz, katta mas'uliyat sohibi, buyuk zot, ta'lim zahmatkashlari, ta'lim fidoiylari kabilar ishlatsilsa, o'qituvchilik (muallimlik) kasbiga nisbatan kasblarning eng sharaflisi, buyuk maqom, yuksak martaba, sharaflı yo'l perifrazalari qo'llaniladi.

Matbuotchilar nutqi perifrazalari. Perifraza matbuot va matbuotchi nutqida yoki ularga nisbatan tilning rang-barangligini, ta'sirchanligini, ohangdorligini va jozibadorligini ta'minlovchi stilistik bo'yonna ega bo'lgan ko'chim sifatida ko'p va xo'p ishlatalishini kuzatamiz. Masalan, «**To'rtinchı hokimiyat**» atamasi jamiyatdagı ijtimoiy fikrga matbuotning qanchalik ta'sir ko'rsata olishini ifodalaydigan lirik atama hisoblansa-da, har bir vatandoshimizning diqqatini jamiyatda bo'layotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonga jaib qilib, unda daxldorlik tuyg'usini uyg'ota oladi va bunga haqqi ham bor (<https://www.xabar.uz/>); O'tgan uch yil mobaynida O'zbekistonda so'z erkinligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish, jurnalist va blogerlarning erkin faoliyat yuritishi va ijod qilishlari uchun huquqiy asoslar va keng imkoniyatlar yaratildi. Bundan keyin ham "**to'rtinchı jamiyat**" vakillarining erkin va xolis faoliyat yuritishlari, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlarni xalqimiz va xalqaro hamjamiyat uchun ochiq-oydin yoritishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratamiz (Murojaatnomadan. 25.01.2020); O'zimizda shuncha **nozik soha vakillari** – talantli jurnalistlar bo'la turib, bizning ichki muammolarimizni boshqa davlat jurnalistlari o'z o'lchamlariga ko'ra talqin qilishi kimga yoqardi (<https://www.xabar.uz/>); "Gazetxonning savoliga javob berish, uning muammolarini hal etishga ko'maklashish vazifamiz", deydi "**qitmir soha**" vakili (<http://zarnews.uz/>); Gazeta – **qizigan tandir**. Sen olov qarshisida turganingni unutma (A.Qahhor. Sinchalak, 73-b).

Matbuotchilar nutqi perifrazalari ichida to'rtinchı hokimiyat, to'rtinchı jamiyat, tezkor soha, qitmir soha (matbuot), nozik soha vakillari, qitmir soha vakillari, xalq ovozi (jurnalistlar), xabar tarqatuvchi, o'z kasbining haqiqiy fidoyisi (matbuochi), qizigan tandir, jamiyatning yuzi, jamiyatning yuragi, seriyali nashr, yangi ma'lumotlar manbai, ishonchli ma'lumotlar manbai (gazeta), davriy nashr (jurnal) kabilar eng faol qo'llaniladi.

Quruvchilar nutqi perifrazalari sifatida quyidagilarni keltirish o'rinni: *Tadbirga usta binokorlar, me'mor va loyihachilar, pudratchi tashkilotlar vakillari, mehnat faxriyilari va sohaning fidoyi mutaxassislari taklif etildi... Sohani rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar tufayli bugun qurilish industriyasi milliy iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikasiya qilish, aholi turmush farovonligini oshirishda muhim tarmoqlardan biriga aylangani qayd etildi (<http://uza.uz/>).; ...ko'p yillik samarali mehnati, ...zamonaviy bino va inshootlarni barpo etish, shahar va qishloqlarimiz qiyofasini tubdan o'zgartirish borasidagi katta xizmatlari hamda sohaga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlashdagi faol ishtiroki*

*munosabati bilan Respublikamizning barcha hududlaridagi qurilish bunyodkorlari Prezidentimiz tomonidan munosib taqdirlandi ( <http://uza.uz/>).*

Aytish joizki, nutqidagi tasviriy ifodalardan qaysi soha, kasb, hunar yoki o'ziga xos sotsial qatlam kishilari ekanligini bilib olish mumkin bo'lgan tiplar, ya'ni perifrazalarning ijtimoiy-kasbiy tasnifga ko'ra tiplari dehqonlar, hunarmandlar, tibbiyot xodimlari, pedagoglar, matbuotchilar yoki quruvchilar nutqi perifrazalari bilan yakun topmaydi. Bu sirani yana olimlar, me'morlar, tikuvchilar, sotuvchilar, qassoblar, oshpazlar, kompyuterchilar kabi o'nlab soha, kasb, hunar egalari nutqi perifrazalari tahlilida davom ettirish mumkin. Eng dolzarb tomoni shundaki, perifrazalar barcha soha vakillarining nutqini go'zallashtiruvchi uslubiy vosita quroli hasoblanadi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент, 2000. – Б.42.; Миртожиев М.М.Хозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2007. –Б.185.
2. Кўнгурор Р. Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент, 1983. – Б. 95.
3. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли лугати. – Тошкент, 1985. – 6. 67.
4. <http://uza.uz> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Қишлоқ хўжалиги ходимлари кунига бағишиланган тантанали маросимдаги нутқи.– 09.12.2017.
5. <https://agronet.uz/category/chorvachilik/>.
6. [uz.delachieve.com/Ijodkorlik nima?](http://uz.delachieve.com/Ijodkorlik_nima?)

# CERTIFICATE

This certificate is awarded to

Ahmadova Umidaxon Shavkat qizi

For active participation in "International Scientific Forum"  
multidisciplinary scientific and practical conference held on  
January 13, 2023 and for the research paper



A.Usmanov  
  
Head of the  
scientific centre



